

HAMID OLIMJON SHE'RIYATIDA ANAFORA VA EPIFORA

Xo'jayeva Nargiza Azamatovna

NavDU "O'zbek tili va adabiyoti" 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Har bir ijodkor o'z she'rlarida o'zining mohirona, boshqalarga o'xshamaydigan va qaysidir jihati bilan ulardan ajralib turadigan uslubiga egadir. Bu borada Hamid Olimjon she'riyatini o'rganar ekanmiz, ijodkor o'z ijodida tilning barcha imkoniyatlaridan oqilona foydalana olgan. Uning she'rlarida Vatan tuyg'usi va uni qalbarga jo qilish, hayotga muhabbat, baxtga intilish va uni his eta olish mavzulari yetakchilik qiladi. Mazkur maqolada tilshunoslikdagi anafora va epifora hodisalarining lingvopoetik xususiyati haqida ma'lumot berib o'tamiz.

Kalit so'zlar: takror, anafora, lingvopoetika, leksik, tovushlar, so'z birikmalari, epifora.

Nasr va nazmda eng ko'p foydalaniladigan stilistik vositalardan biri bu takrorlar hisoblanadi. Ularning juda ko'p xilma-xil turlari bo'lib, jumladan: anafora, alliteratsiya, antistrofa, antaklasa, antonomaziya, antimetabola, metabola, naqorat, monorim, pleonazm, rifma, tautologiya, epifora, epistrofa, qurshab olish, qaytalanish va boshqalarni misol tariqasida aytib o'tishimiz mumkin⁷. Ushbu hodisalar she'riyatda ifoda-tasvir imkoniyatlarini kengaytirib, ijodkorning ichki kechinmalari va uning ruhiyatini o'quvchi ong-u shuurida aks ettirishga yo'l ochadi. Bu borada ba'zi olimlarimizning fikrlariga to'xtalib o'tamiz. Tilshunos olim J. Lapasov takrorini shunday ta'riflaydi: "Badiiy asar mualliflari tasvirlanayotgan voqea-hodisaga o'quvchining diqqatini tortish, uni bo'rttirib ko'rsatish uchun badiiy asarlarda tovush va tovushlar, so'z va so'zlar yig'indisini, gaplarni takror qo'llab, urg'uni kuchaytiradi, nutqqa keskinlik kiritadi.[1] Shubhasiz, shuni aytish joizki, har bir ijodkor qalb qo'rida nimagadir da'vat va bu tuyg'uning qanchalik kuchli ekanligini ifodalash uchun ana shunday ifoda vositalaridan unumli foydalanadi. Ijodkor har qanday so'zni bo'rttirib emas, qalbida tug'yon urib turgan nuqtanigina yuqoriga ko'tarish orqali, maqsadiga erishadi. Butun bir ijod mahsuli ichida ana shu takrorlar naqadar ahamiyatli ekanligini va o'quvchi ularga aynan ko'proq e'tibor qaratishi lozimligini ta'minlaydi, shu bilan birgalikda o'quvchida his-hayajonni kuchaytiradi. Biz murojaat qilgan ijodkorimiz ijodi 30-yillardanoq tilshunos va adabiyotshunos tadqiqotchilar e'tiborini jalb etib kelmoqda. Uning hayot yo'li va ijodiy faoliyati haqida ko'plab monografiya va kitoblar, shu jumladan gazeta va jurnal maqolalari mavjud. Bu bora ko'plab ilmiy ishlar olib borgan S. Azimov, N. Karimov va S. Mallajonov kabi tadqiqotchilarni alohida ta'kidlab o'tishimiz joiz. "Takror o'zbek tilining badiiy uslubida eng faol qo'llaniladigan stilistik usullardan biridir. Ammo uning boshqa funksional uslublarda foydalanilishini ham inkor etib bo'lmaydi[1.55] – deydi S. Karimov. Albatta, takrorlar nafaqat badiiy uslub, balki boshqa uslublarda ham keng

qo'llaniladi. Bu orqali so'zlovchi yoki yozuvchi o'z maqsadini tinglovchi yoki o'quvchiga chuqurroq anglay oladigan va ko'zlangan maqsadda ko'proq natijaga erisha olish imkonini beradi. Ajoyib iste'dod sohibi H. Olimjon she'riyatidagi takrorlarni o'rganar ekanmiz, ular orqali turli xil o'ziga xos uslubiy-g'oyaviy vazifalar ifodalanganining guvohi bo'lamiz. Ba'zi she'rlarida takror faqat ta'sirchanlik, tantanavorlikni ifodalasa, ba'zilarida ta'kid, mubolag'a qilib ko'rsatish, kuchaytirish vazifalarini bajaradi. Quyidagi namunalarni misol tariqasida keltirib, izohlab o'tishimiz mumkin. Masalan, "O'zbekiston" she'rini olaylik:

Bunda bulbul kitob o'qiydi,
Bunda qurtlar ipak to'qiydi.
Bunda ari keltiradi bol,
Bunda qushlar topadi iqbol.
Bunda qorning taglarida qish,
Bahor uchun so'ylaydi olqish.[5.5]

Ushbu she'rda "Bunda" so'zi orqali anafora hodisasi vujudga kelgan. Ijodkor quyidagi takroriy so'z orqali o'z yurtining jannatmisol o'lka va unda dunyoga kelgan hatto, qurt-qumursqalar ham tinch va xotirjam, baxtli hayot kechirayotganini "Bunda" so'ziga urg'u berib, o'ziga xos shukronalik tuyg'usi bilan aytayotgani sezilib turibdi. Ba'zi anaforalar esa ijodkor she'rlaridagi mag'rurlik hissini ham yuzaga chiqaradi. Buni quyida keltiriladigan "Nima bizga Amerika" she'ri misolida ko'rishimiz mumkin:

Nima bizga
Amerika,
Nima bizga
Uning sur'ati.
Uning tezlikligi,
Kuchi,
Qudrati.[5.49]

Misralar boshidagi "Nima bizga" so'zlari orqali ijodkor o'tmishimizga ham nazar tashlar ekan, bir paytlar o'z xalqining boshidan kechirgan kunlari, qilgan mehnati oldida har qanday ilg'or texnikaning chidami va kuchi tiz cho'kib, dosh berolmasligiga ishora qilgan. Mana shu mag'rurlik ostida og'riqli nuqtalar ham ifoda ostida ko'zda tutilgani e'tibordan holi emas. Uning yana bir "Eng gullagan yoshlik chog'imda" she'rida:

Eng gullagan yoshlik chog'imda,
Sen ochilding ko'ngil bog'imda.
Shunda ko'rdi ko'zim bahorni,
Shunda qalbim tanidi yorni.[5.12]

Shunda so'zi orqali ifoda etilgan anafora hodisasi, ijodkorning bebaho yoshlik davrlarini ifodalab, ijodkor yuragida endi nish urib, ko'karib kelayotgan, endi his etilayotgan ilk shirin tuyg'ularni, aynan gullagan yoshlik davrida boshlanganini tasver etgan deyish mumkin. Ushbu she'r davomi bo'lgan quyidagi misralarda:

Shundan beri tilimda oting,
Shundan beri dilimda oting.

Eng gullagan yoshlik chog'imda,
Sen ochilding ko'ngil bog'imda.[5.12]

Bu tuyg'uga duchor bo'lgan ijodkorning, umuman olganda, insonning ruhiy holatidagi o'zgarishlarni ko'z oldimizda gavdalantirganday bo'ladi, ya'ni bunday tuyg'ularning kuch-u qudrati "Shundan beri" so'zi orqali namoyon bo'lgan. Takrorning yana bir turi epifora hodisasi ham anafora kabi xususiyatlarga ega, ammo u misralar so'ngida ekanligi bilan farqlanadi. Bu hodisani S. Karimov "Jumla oxirida tovushlarning, so'zlarning, so'z birikmalarining takrorlanishi epiforadir"[1.59] – deb ta'rif berar ekan, S. Sultonsaidova "So'zlarning oxirida unli yoki undosh tovushlarning, gaplarning, misralar oxirida so'zlarning takrorlanishi"[3.67] – deya baholaydi. Berilgan fikrlar mazmunan bir xil bo'lib, biz bu xususda misollarga to'xtalib o'tamiz. Ijodkorning "Yigit" she'rida:

Bag'rimizni qildi qon yovdan jahonni pok et,
El chekar dod- u fig'on yovdan jahonni pok et.
She'r yurak ey qahramon yovdan jahonni pok et,
Zog' agar qolsa tirik olam tanin tirnog'lar.[5.132]

"Yovdan jahonni pok et" so'zlari epifora hodisasi sifatida yuqorida keltirilgan fikrlarga misol bo'la oladi. Ushbu takror vositasida da'vat ruhi kuchliligi yaqqol namoyon bo'lgan. Ijodkor yigit kishining mard, jasur bo'lishini, el- u yurt boshiga keladigan yovlarga qalqon bo'lishini ta'kidlash barobarida o'z nomiga munosib bo'lsin deya she'rni "Yigit" deb nomlagan degan fikrlarni ham ilgari surushimiz mumkin. Uning "Eng gullagan yoshlik chog'imda" she'rining:

Quchoq-quchoq gullar terganim,
Va keltirib senga berganim.
Kechagiday hamon esimda,
Har soniya har on esimda.[5.12]

Misralarida ham epifora hodisasi bo'lib, bu hodisa "Esimda" so'zi orqali vujudga kelgan. Yoshlik umrning bahori bo'lar ekan, u va unda kechgan barcha aziz xotiralar insonning abadiy xotirida qoladi. Ijodkor ushbu she'rida o'zining go'zal bebaho yoshlik chog'larini esga oladi. She'rda "Esimda" so'zi ushbu damlarni qadr- qimmatini ta'kidlash, anglatish vazifasida kelgan. Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, ijodkor Hamid Olimjon tilining boyligi va so'zlarni qo'llash mahoratining yuksakligi, ijodkorning haqiqiy noyob iste'dod sohibi ekanini yaqqol isbotlaydi desak aslo adashmagan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов Суюн Амирович. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарканд. 1994.
2. Каримов Суюн Амирович. Ўзбек тилининг бадий услуби. – Самарканд: Зарафшон, 1992.
3. Sultonsaidova S., Sharipova O'. O'zbek tili stilistikasi. -Toshkent. 2009.–B



4. Umirova S. O'zbek she'riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik (Monografiya). – Samarqand: Ipak yo'li, 2021. – B 236.
5. “Xayolimda bo'lding uzun kun” she'riy to'plami. –Toshkent, 2019.

